



Muhammad Yusuf qisqa, ammo yorqin hayot sohibi

Mamatqulova Nilufar Omon qizi

Jizzax shahar Hamid Olimjon va Zulfiya
nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi

Annotatsiya: Muhammad Yusuf hayoti va ijodini, asarlarini o'rganish, so'z qo'llash mahoratini o'quvchiga yetkazish uchun yuksak pedagogik mahorat, bilim zarur.

Muhammad Yusuf adabiyotning turli janrlarida (maqola, she'r, hikoya, hajviya, doston) ijod qilib, asardan asarga o'sa borgan. Shoir barmoq vaznida yuksak saviyada ijod qilgan. Uning o'ziga xos iste'dodi, avvalo, shoir sifatida o'zbek she'riyatiga kiritgan yangiliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Izlanishlarimiz davomida Muhammad Yusufning she'rlari, hajviyalaridan tashqari tarjima asarlari ham borligiga guvohi bo'ldik. Shoirning tarjima asarlari va tarjimonlik mahorati haqida dissirtatsiyalar yoki u haqidagi kitob, maqolalarda fikr-mushohazalarni uchratmadik. Maqolada shoirning dostonlari hamda, yangi iste'dod qirrasini, tarjimasi ijodkorning benazir she'r-u dostonlari bilan birga lug'at boyligi, o'tkir didi, nozik ta'biga bog'liq ijodiy jarayonligi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarjimayi hol, maqola, she'r, hikoya, hajviya, doston, barmoq vazni, tarjima asarlar, Diop Mamadu Traope, Jabron Xalil Jabron.

Muhammad Yusufning sevgi lirikasi milliy tafakkur yo'sini, ruhiyatining o'zbekona koloriti, millatimizga xos andisha, tortinchoqlik va tuyqus qilinadigan dangallik ifodasi hamda quyuq mubolag'a sof o'zbekona ohanglarda jaranglashi bilan boshqalarnikidan ajralib turadi. Tuyg'ularning betakror yo'sinidagi she'riy misralaridan tashqari, shoirning dostonlari, hajviyalari, tarjima asarlari ham mavjud. Muhammad Yusuf "Ey, dil", "Qora



quyosh", "Ko'hna quduq", "Temirlar nidosi", "Osmonning oxiri" kabi asarlarda dostonnavisligi zuhurlangan.

Dostonlardagi mahzunlik tariximizdagi qora dog'lardan ko'ngilga ko'chgan iztiroblar aksidir. Tariximizda millatni sotganlar, bir-birini oyog'idan tortganlar ozmuncha bo'lganmi? Shoir yuragini qiynagan dardlar - o'z tarixini yaxshi bilmaslik, og'izbirlik yo'qligidan iborat. U tarix haqida so'z ocharkan, har bir so'z zimmasiga tarixning "qora kun"ini rost ko'rsatish vazifasini yuklaydi. Umuman, shoir yoki asar tili, kitob haqida so'z ketganda professor Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash o'rinli bo'lardi: "Kitobdagi so'z rost va raso bo'lishi, kitoxonni ishontirishi, tuyg'ulariga ta'sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg'ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qiymati qolmaydi. Kitob badiiy bo'ladimi, ilmiy bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo'lmog'i lozim". Bizningcha, xuddi shunday xususiyat Muhammad Yusuf asarlarida yorqin seziladi. Shoir dostonlarida har bir so'zning o'z o'rnini bor. Shoirning so'z qo'llash mahorati mazmun mohiyatiga mos so'zlarni kerakli joyda ishlatishida ko'rinadi. Muallif dostonlarda arxaizmlardan ham, sheva so'zlaridan ham me'yorda foydalanadi.

Izlanishlarimiz davomida Muhammad Yusufning she'rlari, hajviyalaridan tashqari tarjima asarlari ham borligiga guvohi bo'ldik. Shoirning tarjima asarlari va tarjimonlik mahorati haqida dissirtatsiyalar yoki u haqidagi kitob, maqolalarda fikr-mushohadalarni uchratmadik. Quyida shu masalalarga to'xtalib o'tganmiz.

Hayoti yo'li

Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o'qib, uni 1978 yilda bitirdi. Shoir 1978-1980 yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992 yillarda G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1992-1995 yillarda «O'zbekiston ovozi» gazetasida, O'zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-



1996 yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997 yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinbosari lavoshmida ishladi. M. Yusuf O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi. Uning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan edi. Bevaqt o'lim shoirni oramizdan olib ketdi.

Muhammad Yusufning sevgi lirikasi milliy tafakkur yo'sini, ruhiyatining o'zbekona koloriti, millatimizga xos andisha, tortinchoqlik va tuyqus qilinadigan dangallik ifodasi hamda quyuq mubolag'a sof o'zbekona ohanglarda jaranglashi bilan boshqalarnikidan ajralib turadi. Tuyg'ularning betakror yo'sinidagi she'riy misralaridan tashqari, shoirning dostonlari, hajviyalari, tarjima asarlari ham mavjud. Muhammad Yusuf "Ey, dil", "Qora quyosh", "Ko'hna quduq", "Temirlar nidosi", "Osmonning oxiri" kabi asarlarda dostonnavisligi zuhurlangan.

Dostonlardagi mahzunlik tariximizdagi qora dog'lardan ko'ngilga ko'chgan iztiroblar aksidir. Tariximizda millatni sotganlar, bir-birini oyog'idan tortganlar ozmuncha bo'lganmi? Shoir yuragini qiynagan dardlar - o'z tarixini yaxshi bilmaslik, og'izbirlik yo'qligidan iborat. U tarix haqida so'z ocharkan, har bir so'z zimmasiga tarixning "qora kun"ini rost ko'rsatish vazifasini yuklaydi. Umuman, shoir yoki asar tili, kitob haqida so'z ketganda professor Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash o'rinli bo'lardi: "Kitobdagi so'z rost va raso bo'lishi, kitoxonni ishontirishi, tuyg'ulariga ta'sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg'ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qiymati qolmaydi. Kitob badiiy bo'ladimi, ilmiy bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo'lmog'i lozim". Bizningcha, xuddi shunday xususiyat Muhammad Yusuf asarlarida yorqin seziladi. Shoir dostonlarida har bir so'zning o'z o'rni bor. Shoirning so'z qo'llash mahorati mazmun mohiyatiga mos so'zlarni kerakli joyda ishlatishida ko'rinadi. Muallif dostonlarda arxaizmlardan ham, sheva so'zlaridan ham me'yorda foydalanadi.



Izlanishlarimiz davomida Muhammad Yusufning she'rlari, hajviyalaridan tashqari tarjima asarlari ham borligiga guvohi bo'ldik. Shoirning tarjima asarlari va tarjimonlik mahorati haqida dissertatsiyalar yoki u haqidagi kitob, maqolalarda fikr-mushohadalarni uchratmadik. Quyida shu masalalarga to'xtalib o'tganmiz.

(Chili) "Sotqin generallar" (1986), Mikola Lukiv "Otam xatlari", "Obolonida" (1987), Jabron Xalil Jabron "Vardaxonim" (1991) hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalarda badiiy asarning mazmuni, badiiylik, ohangdorligi, muallifning asl niyati, asarning milliy xususiyati, she'riy san'atlar jozibasi aks etgan. Shu bois bu asarlar ona tilida yaratilgan asardek sevib o'qiladi. Albatta, bunda tarjimonning mehnatini alohida e'tirof etish lozim. Tarjimon asarning badiiy konsepsiyasini to'g'ri idrok etgan va qayta yaratish jarayonida ko'proq milliylikka e'tibor qaratgan. Shoir asliyat ruhuni saqlagan holda, fikrni yanada bo'rtirib ko'rsatish uchun o'zbek xalq maqollari, iboralari, go'zal o'xshatishlarni berishi ularning jozibadorligini yanada oshirgan.

Muhammad Yusuf qalblardan joy olgan ijodkor. Uning ijodi kirib bormagan o'zbek xonadoni topilmaydi. Shoir lirikasi yengil va xalqona bo'lganligi bois xalq qalbidan joy olgan.

Muhammad Yusuf ijodi umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lovchi she'riyat hisoblanadi. Uning she'rlarida insoniyatga aloqadar ezgu xislatlar, savob amallar eng baland pardada kuylanadi.

O'zbek she'riyatining o'ta iqtidorli namoyandalaridan biri bo'lgan Muhammad Yusuf ijodining gullagan pallasi XX asr oxiri - XXI asr boshlariga, ya'ni O'zbekiston yangi mustaqilligi davriga to'g'ri keladi. Uning qisqa, ammo yorqin hayotini Pushkinning Bayron haqidagi so'zlari bilan izohlash mumkin: "U o'z she'rlarida ixtiyorsiz tarzda she'riyatning zavqu shavqi ila iqrorlik bildirgan".



Ijodining ilk yillari u kitobxonlarga o'zining o'zbek do'ppisi haqida she'ri bilan tanilgan, keyin uzoq yillar davomida bu she'r shoirning tashrif qog'oziga aylangan. Unda Muhammad Yusuf nima uchun o'zbeklar do'ppi kiymay qo'yganidan hayratlanadi.

Muhammad Yusufning hayotda omadi chopgan edi: ijodiy yo'lining eng avvalida, taqdir uni Erkin Vohidov bilan yuzlashtirdi, u esa Muhammad Yusufning ajoyib iqtidorini sezib, uni rivojlantirishda yordam berdi.

Keyinroq shoir Abdulla Oripov bilan yaqinlashadi. Bu ikki atoqli zamondosh shoirlar Muhammad Yusufning iqtidorini to'g'ri yo'naltirishdi, ularning ijodida - mavzularda, timsollarda, she'r ohangida o'zaro ta'sir va o'zaro bir-birini boyitishni payqash mumkin.

Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hayotidagi har bir hodisa she'riyat edi. U go'yo, osmonlarda qanot qoqayotgan qush kabi juda yengil va yorqin hayot kechirgan. Ammo shoir hayoti juda erta uzilgan. Ijodiy pallasini parvoz vaqti uzilgan... Shoir 2001 yilning 31 iyul kuni vafot etgan.

Muhammad Yusuf kabi o'ta keng qamrovli, hissiyotlari va o'ylari chuqur shoir o'limini bir narsagina — undan meros qolgan va shubhasiz, o'zbek she'riyati rivojiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi she'rlariga yupatadi.

Muhammad Yusuf ijodidagi "Tanish teraklar" (1985), "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudagi qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimda bir yor" (1991), "Bevafo ko'p ekan" (1991), "Erka kiyik" (1992), "Osmonimga olib ketaman" (1998) kabi to'plamlardan joy olgan she'rlarining sadoqatli muxlislarini sanab adog'iga yetib bo'lmasa kerak.

Ijodiy asarlari

Kitoblari va she'rlari: «Tanish teraklar» (1985, birinchi to'plami), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman», «Kumush», «Kokilingni kim kesdi», «Aldov»,



«Turkman qiz», «Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan», «Yolgʻonchi yor», «Qora quyosh» (doston) va boshq. Muhammad Yusuf «Men oʻz bilganimdan qolmadim» sheʼrida sheʼr va shoirlikni shunday anglaydi. Quvraq boʻl deyishdi. Yolgʻon ham kerak, Jindak xushomad ham, quloq solmadim. Oqni oppoq koʻrdim, qorani - qora Men oʻz bilganimdan qolmadim. Hozirgi davr oʻzbek milliyʼ adabiyotining koʻzga koʻringan isteʼdodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlogʻida oddiy oilada tavallud topdi.

Oʻrta maktabni tugatgandan soʻng respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978—1980 yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986 yillarda «Toshkent oqshomi» roʻznomasida, 1986—1992 yillarda esa Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida, hozir esa «Oʻzbekiston ovozi» roʻznomasida faoliyat koʻrsatmoqda. U oʻnga yaqin sheʼriy toʻplamlarning, oʻnlab qoʻshiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalb kirib ulgurgan. Uning dastlabki sheʼrlari birinchi bor «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» roʻznomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan soʻng «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989) «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Koʻnglimda bir yor» (1990), «Bevafo koʻp ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali sheʼriy toʻplamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli sheʼriy toʻplami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

Tarjimon mehnatini alohida eʼtirof etish lozim. Jabronning "Vardaxonim" hikoyasi tarjimasida "Bir narsani tagiga yetganday", "Yolgʻiz farzandidan ayrilgan bechora onadek", "Qoʻrqoqlikni siltab tashladim", "Sizga yuragimni yozib, qalbimni ochmoqchiman ", "Meni bir mo jizadek ko 'z-ko 'z qilardi", "biroq g 'aflatdan uyg 'onib", "peshonamga yaraqlab chiqqan ", "go 'yo u ko 'zlari bilan yuragimga qo'l solsa", "dimog'i ko'tarilgan" kabi ibora va oʻxshatishlar, tasirchan tasviriy vositalar badiiy matnda tasvirning aniqligi va obrazlilikini taʼminlashda faol qoʻllangan.



Kitobxon asarning yechimi va xulosasigacha oxiri yo'q savol -javoblarga ko'milib ketadi va nihoyat bir xulosaga keladi. "Ko'pincha mag'rurlik ayollarni kambag'al erga xiyonat qilib, badavlat erkaklar tuzog'iga ilintiradi. Chunki ayollardagi anvoiy kiyim-kechaklarga, lazziyatli hayotga bo'lgan havas ko'zlarini ko'r qiladida, iflos ishlarga yetaklaydi". Vardaxonim esa bularning aksi, xizmatkorlar to'la dang'illama saroyini tashlab, bir dasta kitobidan boshqa hech vaqosi bo'lmagan bir kambag'al odamning uyini afzal ko'radi. Vardaxonim dunyodan voz kechgan, an'ana, tartib-qoidalarini inkor etgan, o'zidan 30 yosh katta badavlat erkakning (Rashidbek No'monga ko'ngilsiz bo'lgan) boyliklari ichida yashashni o'g'irlik, riyo deb biladi, u o'zi uchun jasarat bilan erk yo'lini tanlaydi. Shu o'rinda bosh qahramonni Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi erksevar, jasur Zebi bilan qiyoslasak o'rinli bo'ladi. Har ikki qahramon ham xatarli biroq eng to'g'ri yo'lni tanlaydi. Livan hududida, keyinchalik Amerika Qo'shma Shtatlarida yashab ijod etgan arab yozuvchisi Jabron Xalil Jabron qalamiga mansub hikoya unda ko'tarilgan mavzu, sharqiy va g'arbiy adabiy an'alarini omuxtaligi bilan ajralib turadi. O'zbek kitobxonlariga uning asarlari hozirgacha yetib kelmagani, muallifdagi badiiy mushohada, uning falsafiy qarashlari, badiiy ifodadagi originallik va boshqa-boshqa ijobiy nuqtalar meni qo'lingizdagi hikoyani tarjima qilishga undadi - deydi tarjimon. Aynan tarjimaning mustaqillik yilida amalga oshirilishi, inson erki mavzusi yetakchi bo'lgani ushbu hikoya shoir didiga mos degan fikrdamiz. Tarjimalrni mahorat jihatdan tekshirish, o'rniga tushmagan, xato qo'llangan, yo qofiya talabi, o'zga tillar qoidalariga muvofiq kelmaydigan, nasriy asar, she'r mazmunini buzadigan, muallif fikrini o'zgartiradigan jihatlar mavjudligi mutaxassislar oldidagi vazifalardan biri.

She'riy tarjimalarda ham mahorat bilan topib qo'llangan badiiy kashfiyot darajasidagi so'zlar mavjud. Tatarchadan: Bo 'm-bo 'sh bog 'cha aylanar jim, Ko 'ngil zoriga: "Yoshligimni bermas edim, Dunyo moliga..." (Sh.Apazov "Kuz", 39- b.)



Tarjimon mahoratini aynan uning so'zga munosabati, u yoki bu so'zni qanchalik topib, o'z o'rnida qo'llay bilgan-bilmaganini boshqa tarjimalarida ham ko'rishimiz mumkin:

Sovuqlik... borsin o'z Muzlari sari. Toshin muz taftidan Tog' buloqlari. Sovima shirador Shinni misol, bas.

Bir mening yonishim bizlarga yetmas!

Muhammad Yusuf she'rlarini ham tarjimonlar mahorat, iste'dod va izlanish samarasi o'laroq ustalik bilan kitobxonlarga taqdim etmoqdalar. Jumladan, rus kitobxonlari ham shoir ijodidan bebahra qolishmagan, R.Kazakbayeva "Ўзбекистан", "Признание", "Кристина", "Послестичи"; "Математика", "Тюльпанчик мой любимый балый мак степной" (Памяти Шавката Рахмона), "Застой", "Райхон" (Подражание Мухаммаду Юсуфу), "Жестокосердие", "Скучаю", "Под джидой", "Желание", "Тюбетейка", из поэмы "Чёрное солнце", G.Reznikov "Если верой в Завтра окрылен ты", "Человек" "Я люблю тебя", "Марухский перевал"; she'rlarini rus tiliga; B. Seytayev "Биз бахытлы боламыз"; Erkin "Anamnan xat" she'rlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilishgan. Ayniqsa, "Muhammed Yusuf secmeler" nomli turkcha tarjima saylanmasi nashri, shoir tavalludining 2022-yil aprel oyida Amerika Qo'shma shtatlari, Turkiya mamlakatlarida keng nishonlanishi ham shoirga bo'lgan ehtiromning yuksak ko'rinishidir. (Sh.Apazov "Junjikma")

Hozirgi sharoitda adabiyot o'qituvchisidan aloqa o'rnatuvchi (kommunikatorlik) sifatiga ega bo'lish ham talab etiladi. Bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bilan birdek ta'limiy aloqa o'rnatish, o'quvchilarni tinglay olish, muammoni yechish uchun mantiqiy izchillikka ega savollarni berish hamda o'quvchilarning savollariga qisqa, aniq, lo'nda va yo'naltiruvchi javob bera bilish, munozarani tashkillashtirish, o'quv xonasi (yoki auditoriya)da ijodiy muhitni hosil qilish kabilar alohida o'rin tutadi. Ta'kidlash kerakki, tadqiqotlar, ba'zi metodik maqolalar yaratilganiga qaramay, darslikdagiga qo'shimcha tarzda sinfdan tashqari o'qish uchun shoir she'rlarini tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- o' quvchilarning yosh xususiyatlarini;



- ularning umumiy adabiy tayyorgarligi, bilim va malaka hamda ko'nikmalarini;
- qishiqish, xohish va istaklarini;
- asarnimng ta'limiy va tarbiyaviy mazmun qamroviga egaligini;
- she'rlarning janr xususiyati;
- mashhurligini, ya'ni qo'shiqqa aylanganligini va boshqalarni va o'rganish metodikasini ishlab chiqish zarur.

Murad va asarlari

Muxammad Yusuf kishi, avlodlarni ilm va ma'rifatga, kerak bo'lsa, milliy qadriyatlarni himoya qilishga ilhomlantirgan tashabbus bilan bordi. Ya'ni, uning asarlari faqat adabiyot bilan cheklanib qolmay, yoshlarning ma'naviy oqimlarini, do'stlik va muhabbatning ahamiyatini ham o'rganadi.

Afsuski, Muxammad Yusuf 2009 yilda 28 yoshda hayotdan ko'z yumdi. Uning yuqori ijodiy salohiyati va adabiy merosi yoshlarga mashhur bo'lib, istiqbolda yangi avlod uchun katta ilhom manbai bo'lib qolishi mumkin.

Bundan tashqari, Muxammad Yusufning ijodi o'zbek adabiyotidagi eng murakkab va muhim lavha sifatida yanada rivojlanish ko'rsatadi, uning asarlari xozirgi kunda ham o'quvchilar qalbida yashab kelmoqda. Uning ijodi inson ruhini shodlantirishga, muhabbatni, do'stlikni, va adolatni targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Aytib o'tilganlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi va shoir ijodini o'tishda nafaqat innovatsion metod va usullarni qo'llashi, balki axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlardan, internet materiallaridan ham foydalanish kerak. Qisqasi, shoir she'rlarini saralab olishda axloqiy-ta'limiy jihatning ustuvorligi pedagogik printsipiga asoslanish lozim. Biz sinfdan tashqari o'qish uchun Muhammad Yusufning buyuk siymolar, Vatan mavzusiga "Bobur nidosi", "Usmon Nosir", "Samarqand", "Amir Timur", "Navoiy"; ijtimoiy-siyosiy mavzudagi "Do'ppi", "Talabalar madhiyasi", "Belbog",



"To'n haqida she'r"; tabiat mavzusidagi "Oq tulpor", "Erka kiyik", "Kapalaklar", "Jayron", "Ko'klamoyim", "Tilla qo'ng'iz" kabi she'rlarini tavsiya etamiz.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hamma inson ham vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtni maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi deb o'ylayman. Shoir she'rlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning she'rlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, mo'tabarligi aks ettirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Анамнан хат: косык // Еркин Каракалпақстан, 2011, 15 январь.
 2. Аппазов Ш. Куз; Жунжикма: шеърлар / Мухаммад Юсуф тарж. // Ёшлик, 1983. - № 8. - Б.39.
 3. Б. Сейтаев. Биз бахытлы боламыз: косыклар / аударган Б. Сейтаев. - Ноқис : Каракалпақстан. - 47 б.
 4. Диоп Мамаду Траоре.. Сузларим сенга. Тошкент: шеър / Мухаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983, 26 сентябрь.
- Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
5. Диоп Мамаду Траоре.. Сузларим сенга. Тошкент: шеър / Мухаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983, 26 сентябрь.
 6. Если верой в Завтра окрылен ты: Человек; Я люблю тебя; Марухский перевал: стихи / перевод Г.Резниковского // Звезда Востока, 2010. - № 3, № 4. -С. 41-43.



7. Жаброн Халил Жаброн. Вардахоним: хикоя / Мухаммад Юсуф тарж. // Шарк юлдузи, 1991. - № 11. - Б. 104.
8. Йулдошев К. Суз ёлкини. - Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2018. - Б 189.
9. Кристина; Признание; Послестишие: стихи / перевод Р. Казакбаева // Наманганская правда, 2013, 27 апрель.
10. Кодиров Н. Мухаммад Юсуф наманганликлар нигоҳида. Монография. -Наманган, 2016. - Б.180-190.
11. Кодиров Н. Мухаммад Юсуф наманганликлар нигоҳида. Монография. -Наманган, 2016. - Б.122-127.
12. Махмудов Н. Сузимиз рост ва расо булсин // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014, 10 январь.
13. Микола Лукив. Отам хатлари; Оболонида: шеърлар / Мухаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1987, 10 июль.
14. Неруда Пабло (Чили). Соткин генераллар; Ватан: шеърлар / Мухаммад Юсуф тарж. // Тошкент окшоми, 1986. 15 сентябрь.
15. Харивонтрай Баччан.Тошкентдаги хабарлар: шеърлар / Мухаммад Юсуф тарж. // Укитувчилар газетаси, 1983, 21 сентябрь.
16. Sariboyeva M. Umum talim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish: Ped. fan. nom... diss. - Toshkent, 2011.